

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

No 9

2025
sentyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN
ACCESS

ULRICH'S WEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
Российский экономический университет
имени Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ

1931
TDSU
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ГЕОДЕЗИЧЕСКАЯ
ИССЛЕДОВАНИЯ
И ТЕХНОЛОГИИ
ПОДСЧЕТА

1931
SLOM KARIMOV NOMIDDI
TDSU
TOSHKENT DAVLAT TEKHNICHKA UNIVERSITETI

1955
TDSU
TOSHKENT DAVLAT
TEKHNICHKA UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT
AKHITTEKUTA-QURILISH
UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT KIYOG - TEKNOLOGIYA INSTITUTI
1991

TJU
TOSHKENT POLITEKNIKA INSTITUTI
1991



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbanov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyedtinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer ustii majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyoziy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-teknologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Olmazor tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va boshqaruv tizimini tahlil qilish	12
Muminov Fazliddin Xusniddin o'g'li	
Transport va logistika sohalarida sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari	19
Usmonov Abbas Valijon o'g'li	
Using matrix analysis methods in marketing strategy in manufacturing enterprises	23
Sheraliev Axror Sodiqovich	
Yer osti konlari suvlari haydash tizimida ejektorli nasoslarni qo'llash imkoniyatlarini tadqiq qilish	30
Xatamova Dilshoda Narmuratovna, Yuldasheva Mohinur Abduxakim qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlash amaliyotining me'yoriy jihatlari va huquqiy asoslari	37
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
Eksport salohiyatini boshqarishda ishlab chiqarish faoliyatini baholash metodologiyasi	42
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
Xizmat ko'rsatish korxonalarining raqamli iqtisodiyotga o'tishida xodimlarning mehnat munosabatlari	46
Kurbanova Raxima Jamshedovna	
Transport tizimining Markaziy Osiyo mamlakalarining milliy iqtisodiy o'sishga ta'sirini hozirgi holati	49
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini boshqarishda risklarni samarali kamaytirish usullari va innovatsion yondashuvlar	54
Marufhanov Davron Xasanovich	
Интеграция ESG-факторов в страховой сектор: возможности, барьеры и развитие рынка	58
Юсуфов Асфандиёр Элдор угли	
Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish yo'nalishlari	63
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Oliy ta'lim tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni shakllantirish konsepsiysi	67
Kurbanov Jaloladdin Yuldashbayevich	
"Intellektual multk", "Intellektual kapital", "Nomoddiy aktiv" tushunchalari o'rtaсидagi munosabat hamda ulardagi o'zaro bog'liqlik	73
N.D.Maxmudova	
Temir yo'l vokzallarida qo'shimcha xizmatlar rivojlanishi: iqtisodiy samaradorlik va moliyaviy barqarorlik omili	77
Iskandarov Kudrat Shuxratovich	
Iqtisodiyotning agrar sektori salohiyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	83
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida yashirin iqtisodiyotni fiskal vositalar bilan tartibga solish strategiyasi	87
Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi	



RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASI ASOSIDA YASHIRIN IQTISODIYOTNI FISKAL VOSITALAR BILAN TARTIBGA SOLISH STRATEGIYASI



Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi

Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD),
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada norasmiy iqtisodiyotni fiskal instrumentlar orqali legallashtirishning asosiy yo'nalishlari tahlil qilinadi. Soliq siyosatini optimallashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va byudjet shaffofligini oshirish orqali yashirin iqtisodiyotni kamaytirish imkoniyatlari yoritilgan. Rivojlangan davlatlar tajribasi asosida O'zbekiston sharoitiga mos takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Soliq ma'muriyatichiliqi, fiskal raqamlashtirish, rasmiylashtirish strategiyasi, elektron hisob-faktura, fiskal siyosat, iqtisodiy shaffoflik.

Abstract: The article examines the key directions of legalizing the informal economy through fiscal instruments. It explores the potential for reducing the shadow sector by optimizing tax policy, implementing digital technologies, and enhancing budget transparency. Based on the experience of developed countries, proposals adapted to the context of Uzbekistan are developed.

Keywords: tax administration, fiscal digitalization, legalization strategy, electronic invoice, fiscal policy, economic transparency.

Аннотация: В статье рассматриваются основные направления легализации неформальной экономики посредством фискальных инструментов. Анализируются возможности сокращения теневого сектора за счёт оптимизации налоговой политики, внедрения цифровых технологий и повышения прозрачности бюджетных процессов. На основе опыта развитых стран разработаны предложения, адаптированные к условиям Узбекистана.

Ключевые слова: налоговое администрирование, фискальная цифровизация, стратегия легализации, электронный счёт-фактура, фискальная политика, экономическая прозрачность.

KIRISH

Hozirgi davrda iqtisodiy rivojlanish jarayonlarida eng katta muammolardan biri sifatida yashirin iqtisodiyotning mavjudligi tilga olinmoqda. Mazkur jarayonning keng tarqalishi nafaqat soliq tushumlarining kamayishiga, balki makroiqtisodiy siyosatning izchilligi va barqarorligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Norasmiy faoliyatning yuqori darajasi iqtisodiy statistik ko'rsatkichlarni buzadi, davlat byudjeti defitsitini oshiradi, ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi va moliyaviy resurslarning noto'g'ri taqsimlanishiga olib keladi. Shu sababli, bugungi kunda ko'plab mamlakatlar ushbu muammoni hal etishda fiskal instrumentlardan keng foydalanishga intilmoqda.

O'zbekiston tajribasi ham shuni ko'rsatadiki, norasmiy sektorning mavjudligi iqtisodiyotning turli tarmoqlarida barqarorlikka putur yetkazmoqda. Ayniqsa, kichik biznes va xizmat ko'rsatish sohalarida faoliyat yuritayotgan subyektlarning katta qismi rasmiy tizimdan tashqarida qolmoqda. Bu esa davlat byudjeti tushumlarini sezilarli darajada qisqartirib, fiskal barqarorlikka salbiy ta'sir o'tkazadi. Shu bilan birga, oxirgi yillarda mamlakatda amalga oshirilayotgan soliq siyosatini optimallashtirish, byudjet jarayonlarida shaffoflikni oshirish hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha islohotlar yashirin iqtisodiyotni qisqartirish uchun muhim imkoniyatlar yaratmoqda.



Xalqaro tajribaga nazar tashlaganda, turli mamlakatlarda norasmiy faoliyatni kamaytirishda fiskal mexanizmlar samaradorligi isbotlangan. Masalan, Daniya, Chilli, Braziliya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda elektron hisob-fakturalar, onlayn nazorat-kassa mashinalari hamda uchinchi tomon hisobotlari tizimi orqali soliq intizomi kuchaytirilgan. Yevropa Ittifoqida esa naqd pul aylanmasiga cheklovlar qo'yilishi va elektron to'lovlarning keng joriy etilishi natijasida norasmiy iqtisodiyot hajmi ancha qisqargan. Bu tajribalar O'zbekiston sharoitida ham qo'llash mumkin bo'lgan samarali mexanizmlarni ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARI

Yashirin iqtisodiyotning shakllanishi va uni legallashtirish yo'llari bo'yicha so'nggi yillarda nufuzli xalqaro mualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ushbu hodisaning murakkabligini va uni bartaraf etishdagi ko'p omilli yondashuv zarurligini ta'kidlaydi.

Schneider va Enste tomonidan olib borilgan tadqiqotda yashirin iqtisodiyotga olib keluvchi asosiy omillar sifatida soliq yukining yuqoriligi, ruxsatnoma olishdagi byurokratiya, mehnat bozorining qat'iy tartibga solinganligi va institutlar sifatsizligi ko'rsatiladi. Mualliflar norasmiy iqtisodiyotni soliq siyosati va tartibga solish darajasining "reaksiysi" sifatida talqin qiladilar. Ularning fikricha, soliq siyosatini optimallashtirish orqali iqtisodiy subyektlar norasmiy faoliyatdan voz kechishlari mumkin [1]. Bu yondashuv fiskal instrumentlarning roli faqat jazolovchi emas, balki moslashtiruvchi funksiyani bajarishi kerakligini ko'rsatadi.

Keyingi yondashuvlar norasmiy iqtisodiyotni kamaytirishda raqamlashtirishning ta'sirini alohida ajratib ko'rsatadi. Taniqli iqtisodchi Naritomi o'zining tadqiqotida Braziliya tajribasini o'rganib, fiskal chekni mijoz tomonidan talab qilish mexanizmini soliqdan qochishni kamaytirishdagi muhim vosita sifatida tasvirlaydi. Uning modelida iste'molchi soliq nazoratchisi vazifasini bajaradi, natijada chakana savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi yashirin operatsiyalar kamayadi [2]. Bu tadqiqot norasmiy faoliyatni faqat davlat emas, balki jamoaviy ishtirok orqali ham nazorat qilish mumkinligini ko'rsatadi.

Pomeranz tomonidan o'tkazilgan keng qamrovli empirik tadqiqotda esa uchinchi tomon ma'lumotlarining mavjudligi soliq to'lovchilarning o'zini o'zi intizomga solishiga qanday ta'sir qilishini ko'rsatadi. Chile tajribasi asosida u shuni isbotlaydiki, xodimlarning soliq deklaratasiyaligiga nisbatan soliq idoralari tomonidan beriladigan signal (audit ehtimoli) ko'rsatilsa, bu rasmiy tushumlarning sezilarli darajada ortishiga olib keladi [3]. Bu mexanizm norasmiy iqtisodiyot hajmini qisqartirishda aniqlik va ishonch muhim o'rinn tutishini bildiradi.

Bundan tashqari, raqamli fiskal instrumentlarning iqtisodiy formalizatsiyaga ta'siri, ayniqsa, elektron hisob-fakturalar va onlayn kassa mashinalari orqali, bir necha davlatlarda baholangan. Kleven va hammualliflar tomonidan Daniyada o'tkazilgan soliq auditni asosidagi tadqiqot shuni ko'rsatadiki, raqamli audit va uchinchi tomon hisobotlari birlgilikda ishlatalganda norasmiy faoliyat deyarli yo'qqa chiqadi, ayniqsa yirik biznes subyektlari orasida [4]. Ularning natijalari fiskal monitoring tizimini har tomonlama integratsiyalash zarurligini ko'rsatadi.

Yana bir muhim yondashuv bu institutsional sifat va fiskal siyosat o'rtasidagi uzviy bog'liqligidir. Torgler va Schneider tomonidan olib borilgan panel tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, soliq axloqi darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda yashirin iqtisodiyot darajasi past bo'ladi. Bunda hukumatga bo'lgan ishonch, institutsional shaffoflik va fuqarolik madaniyati asosiy determinantlar sifatida maydonga chiqadi [5]. Bu holat, fiskal siyosat samaradorligini oshirish uchun faqat texnik vositalar emas, balki ijtimoiy ong, axloqiy motivatsiya va davlat-fuqarolik aloqalari muhimligini ko'rsatadi.

So'nggi tadqiqotlarda raqamli iqtisodiyot kontekstida yashirin faoliyatning yangi shakllari, xususan kriptoaktivlar va onlayn tranzaksiyalardagi soliqdan bo'yin tov lashlar ham ilmiy muhokama qilinmoqda. Gaspareniene va Remeikiene o'z tadqiqotida raqamli "soya iqtisodiyoti" tushunchasini kiritib, uning an'anaviy norasmiy faoliyatdan farqli ravishda transchegaraviy, decentralizatsiyalashgan va nazoratdan chetda qolayotgan yangi shakllarini tahlil qiladi. Ularning fikricha, hozirgi davrda fiskal siyosat nafaqat milliy miqyosda, balki global moliyaviy arxitekturaga mos ravishda yangilanmog'i zarur [6].

TAHLIL VA NATIJALAR

Norasmiy iqtisodiyot muammosiga qarshi kurashishda rivojlangan mamlakatlar tomonidan qo'llanilgan fiskal instrumentlar, ayniqsa raqamlashtirishga asoslangan mexanizmlar, jahon miqyosida samarali natijalar bergen. Ushbu yondashuvlar soliq ma'muriyat chilibini kuchaytirish, moliyaviy operatsiyalarning aniqligini ta'minlash hamda davlat va biznes subyektlari o'rtasidagi hisobdorlikni oshirishga xizmat qilgan. Raqamli fiskal texnologiyalar, xususan, elektron hisob-faktura, real vaqt nazorati va avtomatlashtirilgan audit tizimlari orqali tranzaksiyalarni hujjalashtirish darajasi ortgan. Natijada norasmiy iqtisodiyot ko'لامи bosqichma-bosqich qisqarib, fiskal barqarorlik va soliq tushumlarining barqaror o'sishi ta'minlangan.



1-jadval. Raqamli fiskal texnologiyalarning rivojlangan mamlakatlar amaliyotida qo'llanilishi.

Mamlakat	Texnologik instrument	Amaliy yondashuv va funksional ta'sir doirasi
Daniya	NemHandel – davlat xaridlarida einvoice tizimi	Barcha davlat xaridlarida elektron hisob-faktura majburiy bo'lib, shaffoflik, hisobdorlik va korrupsiyaga qarshi nazoratni kuchaytirishga xizmat qiladi.
Italiya	Registratore Telematico (RT) – fiskal qurilmalar	Chakana savdo va xizmatlar sohasidagi barcha tranzaksiyalar real vaqt rejimida soliq organlariga uzatiladi. Bu tizim yordamida tranzaksiyalarning aniqligi va ishonchligi ta'minlanadi.
Gretsiya	myDATA – elektron hisoblar axborot platformasi	Raqamli monitoring asosida barcha yuridik shaxslar moliyaviy hisobotlarni onlayn tarzda topshiradi, bu esa fiskal ma'lumotlarning avtomatik tekshiruvi va ko'rsatkichlarning izchilligini kafolatlaydi.
Germaniya	TSE (Technische Sicherheitseinrichtung) moduli	Har bir savdo operatsiyasi raqamli imzo orqali hujjatlashtiriladi va soliq idorasiga uzatiladi. Bu mexanizm orqali daromadlar yashirilishining oldi olinadi va ishonchli audit muhitini yaratiladi.

Manba: muallif tomonidan tayyorlandi

Ushbu tajribalar shuni ko'rsatadi, raqamli fiskal texnologiyalar nafaqat soliq tushumlarini ko'paytirishga, balki iqtisodiyotdagи norasmiylikni izchil qisqartirishga xizmat qiladi. Daniyada davlat xaridlarida einvoice tizimining joriy etilishi orqali barcha shartnomaviy munosabatlar rasmiy tus olgan, bu esa soliqqa tortish bazasini kengaytirgan. Italiyada esa har bir tranzaksiya ustidan onlayn nazorat joriy qilingan, bu soliqdan bo'yin tovslashni murakkablashtirgan. Germaniya va Gretsiya kabi mamlakatlarda moliyaviy hisobdorlik real vaqt rejimida davlat soliq tizimlari bilan bog'langan. Bu tajribalar milliy fiskal siyosatni raqamli arxitekturaga moslashtirish zarurligini ko'rsatadi.

2-jadval. Rivojlangan mamlakatlarda fiskal strategiyalar va institutsional mexanizmlar orqali norasmiy iqtisodiyotga qarshi kurashish

Mamlakat	Fiskal strategiya yoki yondashuv	Tizimli ta'sir va natijaviylik
Janubiy Koreya	Elektron to'lovlarни rag'batlantirish siyosati	Banklar orqali to'lov tizimlarining keng joriy etilishi, naqd pul aylanmasining cheklanishi va raqamli operatsiyalarning soliq tizimiga integratsiyasi orqali rasmiy sektor kengaytirilgan.
Germaniya	Soliq audit tizimi va avtomatik monitoring	Soliq idoralari tomonidan sun'iy intellekt asosida kuzatuvlar olib boriladi. Audit ehtimoli yuqori bo'lgan subyektlar aniqlanib, nazorat choralari ko'rildi.
Yevropa Ittifoqi	Integratsiyalashgan fiskal siyosat konsepsiysi	Soliq islohotlari raqamlashtirish, xalqaro ma'lumot al mashuvi, soliq bazasini avtomatik tekshirish va compliance mexanizmlari bilan uyg'unlashdirilgan. Har bir mamlakat milliy tizimni YI standartlariga moslashtirish orqali yashirin iqtisodiyotni kamaytirishga intiladi.

Manba: muallif tomonidan tayyorlandi

Rivojlangan mamlakatlar nafaqat texnologik, balki strategik va institutsional jihatdan ham norasmiy iqtisodiyotni cheklashga qaratilgan tizimli choralarni amalga oshirmoqda. Janubiy Koreyada elektron to'lovlar davlat tomonidan rag'batlantiriladi, bu orqali fuqarolar raqamli iz goldirishga undaladi va soliqqa tortish bazasi kengayadi. Germaniyada esa sun'iy intellekt asosida soliq risklari prognoz qilinadi va audit resurslari aniq va samarali yo'naltiriladi. Yevropa Ittifoqi darajasida esa soliq qonunchiligi, texnologik infratuzilma va compliance siyosatlari uyg'unlashgan holda amalga oshiriladi. Ushbu tizimli yondashuvlar iqtisodiy shaffoflikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

TAKLIFLAR VA XULOSA

Yashirin iqtisodiyotni fiskal mexanizmlar orqali legallashtirish – zamонави iqtisodiy siyosatning strategik ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, u moliyaviy resurslar bazasini kengaytirish, byudjet barqarorligini ta'minlash hamda iqtisodiy shaffoflikni kuchaytirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari asosida taklif qilinayotgan chora-tadbirlar quyidagi asosiy yo'nalishlarga jamlanadi: birinchidan, soliq siyosatini maqbullahtirish orqali norasmiy faoliyatdan rasmiy sektorga o'tishni rag'batlantirish zarur; bunda soliqqa tortish stavkalarini soddalashtirish, soliqqa tortish bazasini kengaytirish va soliqqa ixtiyoriy rioya etish madaniyatini shakllantirish asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Ikkinchidan, fiskal raqamlashtirish darajasini keskin oshirish,



xususan elektron hisob-faktura, onlayn kassa mashinalari, real vaqt monitoring va soliq to'lovchilarni raqamli identifikatsiyalash kabi texnologiyalarni to'liq va majburiy joriy etish zarur.

Uchinchidan, byudjet jarayonlarida shaffoflikni kuchaytirish orqali fiskal kontraktni mustahkamlashga erishiladi; bu esa aholining davlatga bo'lgan ishonchini oshiradi va fiskal intizomni mustahkamlaydi. To'rtinchidan, xalqaro tajribaga tayangan holda, audit tizimi, uchinchi tomon hisobotlari va avtomatik soliq moslashtirish mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, ayniqsa sun'iy intellekt assosida soliq risklarini aniqlash tizimini rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Beshinchidan, norasmiy iqtisodiyotni kamaytirishdagi har qanday texnologik va institutsional yondashuv ta'lif, axborot siyosati va fuqarolik ishtiroki bilan uyg'un holda amalga oshirilishi lozim, ya'ni soliq madaniyati va ijtimoiy motivatsiyani shakllantirish fiskal islohotlarning ajralmas qismi bo'lishi shart.

Xulosa qilib aytganda, yashirin iqtisodiyotni legallashtirish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar faqat texnik vositalarga emas, balki tizimli, kompleks va strategik yondashuvga asoslanishi zarur. Bunda soliq siyosati, fiskal texnologiyalar, institutsional muhit, fuqarolik madaniyati va xalqaro standartlarga uyg'unlik bir butun fiskal boshqaruvi modeli sifatida ko'rib chiqilishi lozim. O'zbekiston sharoitida yuqorida chora-tadbirlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish, iqtisodiyotning norasmiy qismini legallashtirish orqali barqaror fiskal rivojlanishga erishish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida ijtimoiy barqarorlik,adolatli soliqqa tortish va davlat moliyasi mustahkamligini ta'minlaydi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Schneider, F., & Enste, D. H. (2000). Shadow Economies: Size, Causes, and Consequences. *Journal of Economic Perspectives*, 38(1), 77–114.
2. Naritomi, J. (2019). Consumers as Tax Auditors. *American Economic Review*, 109(9), 3031–3072.
3. Pomeranz, D. (2015). No Taxation Without Information: Deterrence and Self-Enforcement in the Value Added Tax. *American Economic Review*, 105(8), 2539–2569.
4. Kleven, H. J., Knudsen, M. B., Kreiner, C. T., Pedersen, S., & Saez, E. (2011). Unwilling or Unable to Cheat? Evidence from a Tax Audit Experiment in Denmark. *Econometrica*, 79(3), 651–692.
5. Torgler, B., & Schneider, F. (2007). Shadow Economy, Tax Morale, Governance and Institutional Quality: A Panel Analysis. *IZA Discussion Paper Series*, No. 2563.
6. Gasparieniene, L., & Remeikiene, R. (2015). Digital Shadow Economy: A Critical Review of the Literature. *Mediterranean Journal of Social Sciences*, 6(6S5), 402–410.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100